



**TIBBIYOT INSTITUTI TALABALARIDA CHET TILINI O'RGANISHGA
NISBATAN MOTIVATSIYA XOSIL QILISH**

Abdumutalova Dilnoza Davronbek qizi

*Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingiliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi
E – mail : dilnoza774411@gamil.com*

Tel : +998902051208

Abdumutalova Dilnoza

*Student of Andijan State
Institute of foreign Languages*

Ilmiy rahbar: Muqimjon Axunov Muhammadaminovich

(PhD) f.f.f.d, dotsent

E-mail: muqumjon.axunov@bk.ru

Telefon: +998979977443

**CREATING MOTIVATION TO LEARN A FOREIGN LANGUAGE
AMONG STUDENTS OF THE INSTITUTE OF MEDICINE**

Annotatsiya: *Maqolada ingliz va o'zbek tillarida tibbiyot instituti talabalarida chet tilini o'rganishga nisbatan motivatsiya xosil qilish va chet til o'qitish metodikasi orqali motivatsiya talqini qilingan. tibbiyot instituti talabalarida chet tilini o'rganishga lingvodidaktik tadqiqoti va chet til o'qitish metodikasini muammolari qiyosiy tarzda amalga oshirilgan farqlanishi tillar o'rtasidagi metodikasini mazmunida ko'rsatib o'tiladi.*

Kalitso'zlar: *lingvodidaktika, metodika, motivatsiya, chet tili.*

Abstract: *The article analyzes the formation of motivation for learning a foreign language among medical institute students in English and Uzbek languages and the interpretation of motivation through foreign language teaching methodology. The study of linguodidactical research on the learning of a foreign language among*



medical institute students and the problems of foreign language teaching methodology are presented in the context of the comparative implementation of the methodology of different languages.

Keywords: *linguodidacty, methodology, motivation, foreign language.*

Mamlakatimizda olib borilayotgan isloxotlar ezgu niyatlarga, halqimiz turmush tarzini yaxshilashga, O'zbekistonni taraqqiy etgan mamlakatlar katoriga olib chiqishga qaratilgan. Yurtimiz kelajagi, xalq farovonligi, shu bilan bog'liq istiqbolli rejalarimizni amalga oshirish ko'p jihatdan zamon talablariga javob beradigan, bilimli yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'likdir. Mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlari oldida turgan dolzarb masalalardan biri xam aynan siyosiy jixatdan yetuk, bilimli, yuqori saviyada fikrlash madaniyatiga ega, xorijiy texnologiyadan xabardor va ilmiy texnikaviy axborotlardan tibbiyot soxasiga oid zarur materiallarni tanlab oladigan, kompyuter texnologiyalarini mukammal egallagan malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

Ushbu qayd etilgan vazifalalarni bajarishda barcha mutaxassislik fanlari qatori xorijiy tillarni ham o'ziga xos alohida o'rni borligini ta'kidlash lozim, chunki hozirgi vaqtda turli soha mutaxassislarida chet tillarni o'rganishga nisbatan yangicha munosabat shakllanmoqda. Bu halqaro munosabatlarni o'sishi va tobora rivojlanib borayotganligi natijasida kelib chiqqan va chet tillarni o'rganishga bo'lgan extiyojdir.

Bo'lg'usi vrachlarni chet tillardan xabardor bo'lishi ularga xorijdagi ilg'or tajribadan va tibbiyot soxasidagi yangi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xorijdagi yetuk tibbiyotga oid muassasalarda malaka oshirib kelish imkoniyatlariga ega bo'lishlariga katta yordam beradi.

Ma'lumki, chet tillarni o'qitishda ularga o'rganilayotgan chet tilini o'qitishdan ko'zlangan maqsadni to'g'ri tushuntirish, bu tilni kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida foydalanishi mumkinligi bilan bog'liq qiziqarli misollar keltirish talabalarida o'rganilayotgan chet tiliga nisbatan motivatsiyani keltirib chiqaradi.

Tibbiyot talabalarini ingliz tili o'rganishga kiziqtirish uchun turli omillardan samarali foydalanish talab etiladi. Shulardan biri o'rganilayotgan mavzudan



ko'zlangan maqsadni tiniq bayon qilib berish va o'quv materialining talabalar bilim darajasiga mos kelishidir. Bu ularda o'z kuchlariga bo'lgan ishonchni xosil qilishga yordam beradi. Agar talabalar berilgan topshiriqni kanday bajarishni bilmasalar va u talabalar bilim darajasiga nisbatan murakkab bo'lsa, ular topshiriqni bajarishga qiziqmaydilar, ularda istak va xoxish xam bo'lmaydi. Birok talaba berilgan topshiriqni bajara olsa, unda yana shunga o'xshash topshiriqni bajarishga bo'lgan istak-xoxish ortadi. Uning yutug'ini o'qituvchi tomonidan biroz maqtab qo'yilishi esa talabani ruxlantirib yuboradi va unda chet tshgani o'rganishga nisbatan motivatsiya xosil bo'ladi. Zamonaviy interfaol usullardan o'rinli foydalanish ham talabalardagi motizatsiyani yanada orttirishga yordam beradi. Masalan, "o'pka" (lungs) mavzusini o'rganishda "klaster" va "breynstroming" (aqliy xujum) kabi interfaol usullardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda o'qituvchi o'pka rasmidan foydalangan xolda "lungs" so'zini o'quv jarayoniga olib kiradi va shu so'z yordamida klaster tuziladi. Bu so'z birikmasi, gap va mavzuga oid fikr bildirish orqali amalga oshiriladi. Bunday ketma-ketlilik osondan murakkabga borish xususidagi didaktik tamoyilga ham mos keladi. Turli rolli o'yinlardan foydalanish talabalarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga va o'stirishga katta yordam beradi, chunki rolli o'yinlar talabalarning faolligini oshiradi va ulardagi uyatchanlik, ikkilanish, xato qilib qo'yishdan cho'chish kabi psixologik to'siklarni olib tashlashga yordam beradi. Shuningdek, individual va gurux-gurux yoki juft-juft bo'lib ishlash ham talabalarning faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda o'rganilayotgan chet tiliga nisbatan motivatsiyani hosil qilish ular tomonidan o'quv materialini o'rganish samaradorligini oshiradi hamda ko'nikma va malakalarni shaqllantirishni kafolatlovchi omillardan biri hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili gramatikasi. Toshkent 1996 y.
2. Аракин В.Д. Практический курс английского языка. Владос 2000.
3. Бархударов Л. Граматика английского языка. М. 1975.
4. Белеев Н. Граматика английйского языка. М. 1975.



5. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent 1996. Качалова К. Практическая грамматика английского языка. М. 2000
 6. Kutiper U.B. Language. Orlando 1990 йил.
 7. Mirzaev N. O'zbek tili. Toshkent 1994 yil.
 8. Mirzaev N. hozirgi zamon o'zbek tili. Toshkent 1985 yil.
 9. H. Brace. Adventure for readers. 1989.
 10. R. Murphy. Grammar in Use. Oxford 1994.
 11. G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent 2003.
 12. Hoshimov G'.M. Ingiliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent 2003.
- Xashimov G.M. Tipologiya